

AYOLNING BAXT VA MA'SULIYAT O'RTASIDAGI IZTIROBI

Tolibjonova Arofat Obidjon qizi

Oriental Universiteti

Olmazor tumani, Noraztepa ko'chasi. 52-uy

Annotatsiya: *Bu maqolada misrlik adiba Safi Abdullahning ijodi, hamda "Yarim ayol" hikoyasi tahlilga tortilgan. Safi Abdulloh Misrning ko'zga ko'ringan yozuvchilardan biri bo'lib, ayollar mavzusida qalam tebratadi. Mazkur maqolada "Yarim ayol" hikoyasida ayolning bevaqt sevgi – muhabbati tasvirlanib, ayolning iztiroblari yoritiladi. Oilali, farzandli ayolning sevib qolishi, lekin uning muhabbati qanchalik kuchli bo'lmasin farzandlari hamma narsadan, hatto hayotidan ham ustun turishi tasvirlangan.*

Kalit so'zlar: *hikoya, Misr, ayol, ta'lim, Safi Abdallah, so'z san'ati, Yarim ayol, baxt, farzand, hayot.*

KIRISH

Adabiyot inson qalbining eng nozik kechinmalarini, jamiyatdagi o'zgarishlarni, ayniqsa, ijtimoiy ongdagi siljishlarni ifodalovchi muhim madaniy hodisadir. Xususan, ayollar ijodining yuzaga chiqishi va taraqqiyoti arab adabiyoti tarixida alohida bosqich sifatida e'tirof etiladi. Bu holat, avvalo, arab jamiyatlarida ayollarning ta'lim olish huquqiga ega bo'la boshlashi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Misr adabiyotining mashhur vakillaridan biri — Safi Abdallah ijodini o'rganish nafaqat adabiy, balki ijtimoiy, madaniy va ruhiy kontekstda ham muhimdir. U o'z asarlarida ayolning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o'rni, muhabbat va onalik o'rtasidagi murakkab ziddiyatlarni mahorat bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, uning "Yarim ayol" nomli hikoyasi — bir vaqtning o'zida ayol bo'lish, sevmok va onalik burchini ado etish o'rtasida ezilgan zamonaviy ayol obrazini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada Safi Abdallahning "Yarim ayol" hikoyasi misolida ayol psixologiyasi, ichki iztiroblar va baxtni tanlashdagi og'riqli qarorlar tahlil qilinadi. Mazkur mavzu ayniqsa arab dunyosidagi ayollar ruhiyati, jamiyat va an'ana bilan kurashayotgan ayol shaxsiyati bilan qiziqadigan o'quvchi va tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Arab mamalakatlari ayollar ijodi paydo bo'lishi va rivojlanishi albatta ularning ta'lim olishi va umuman mamlakatda ayollar ta'lim tizimining tashkil topishi bilan bog'liq. Misrda ilk bor 1845-46 yillarda ayollar ta'limiga ruxsat berildi va ayni shu yillarda ayollar uchun maxsus maktablar tashkil etildi. Yillar davomida asta sekinlik bilan ayollarga ilm olishlari yo'lida qo'yilgan turli chegaralar olib tashlana boshladi. Hozirgi kunda Misrda universitet bitiruvchilarining 47% ga yaqini ayollardan tashkil topgan. Misr adabiyotida

ayollar ijodi XX asrning boshlarida ko'zga tashlana boshladi. Hususan, Misr adabiyotida hikoyanavislik alohida o'ringa ega bo'ldi. Nafaqat erkaklar balki ayollarda ham adabiyotning bu janrida ijod qilish alohida qiziqish uyg'otdi.

Hikoya-badiiy adabiyotda kichik epik janr hisoblanadi. Hayotiy voqea hodisalarni ixcham ifoda etadigan nasriy asardir. Ixchamlilik va tushunarliklik xususiyatlari tufayli bu janr adib va adibalarning e'tiborini tortgan. 1925-yilda Misrning Al-Fayyum shahrida tug'ilgan Safi Abdalla ham hikoya janrida ko'plab yorqin asarlar yaratgan. Adiba ingliz, fransuz va italyan qizlar maktabida o'qib tahsil olgan. Ilm olish bilan birgalikda o'z uyida tolibi ilmlarga arab tilidan dars bergan. 1942-yildan boshlab hikoyalar yoza boshlagan. Adabiyotdagi ijodkorligi yuqori baholanib 1947- yilda adabiy mukofotni qo'lga kiritgan. Ijod bilan shug'ullanish bilan bir qatorda Qohiradagi "Dor al-Hilol" nashriyotida muharrir bo'lib ishlagan, ko'plab hikoyalar, maqolalar va xorijiy romanlarning matnlarini mashxur jurnallarda nashr etgan. Shuningdek, u ayollarning "Havva" jurnali uchun "Sizning muammoyingiz" nomli ruknini tahrir qilgan. Badiiy adabiyotning sermahsul yozuvchisi bo'lgan. U 14 jildlik qissalar, 5 ta roman, 3 ta dramatik kitob, 2 ta tanqidiy tadqiqotlar va jahon adabiyotidan ko'plab tarjimalar nashr etgan.

Safi Abdullohning "Yarim Ayol" hikoyasini tahlil qilar ekanmiz eng avvalo hikoyaning nomlanishi e'tiborini tortdi. "Yarim ayol" –birinchi eshitilganda biroz tushunarsiz va ko'z oldimizda gavdalantirish biroz mushkulroq bo'lgan jumla. Yarim ayol – u qanday bo'lishi mumkin? Aynan shu yerdan adibaning so'z san'atidan moxirona foydalanganiga guvoh bo'lamiz. Inson nafaqat jisman balki ma'nau malum bir qismlarga bo'linishi mumkin. Yashab turgan asl hayoti va hayollaridagi o'zining kichik bir dunyosi bo'ladi va ana shu o'z orzu niyatlari amalga oshgan va barchasi faqatgina u hohlagandek bo'lgan olamni o'zining haqiqiy hayotiga aylantirishga harakat qiladi. Ya'ni bir inson ikki xil bir hayotda umrguzaronlik qiladi. Bu bir qarashda so'zlar bilan ifodalaganda osondek go'yo ammo o'zining yashab turgan hayotidan ko'ngil tolmasdan doim uni o'zgartirishga barchasi o'zi hohlagandek bo'lishiga intilib yashash mushkuldir. Buni hikoya qahramoni timsolida ham ko'ramiz. Aynan shu manoda adiba qahromonini Yarim ayol deya ifodalashga uringan.

Hikoya boshlanishi quyidagicha:

Ayolning yuragi dahshatli darajada urdi va badanini titratadigan quvonch hissini tuydi. Uning ko'zlari atrofidagi manzaraga qaradi. U biror narsani anglay oladimi? U olmonni va uning atrofidagi tiqilinchlikni his qila oladimi? Yo'q, unchalik emas. Mashina ko'chalarda yurib borar ekan, uning sog'inchi yuragidan otilib chiqardi, uni oldinga itarardi, u mashina judayam sekin harakatlanayotgandek his qilar va go'yoki tashqariga otilib yugurib ketish istagi bor-u va u bunga qarshi kurashayotgandek edi.....U bilan uchrashadigan joyiga!

Hikoyaga kirish qismining o'zida juda go'zal o'xshatishlardan foydalanilgan. Ayniqsa, hikoya qahramoni bo'lgan ayolning sog'inchi naqadar kuchli ekanligi uning atrofdagi hech kimni angalamasligi va hattoki mashinaning harakatlanayotgani ham uning ichidagi sog'inch tezligidanda sekin deya ta'riflashga uringan. Avvalida bularning barchasi kim

uchun ekanligi sir tutilib faqat uning qayergadir telbalarcha oshiqayotgani tasvirlangan, gap so'ngida esa oddiy bir kishilik olmoshi bilan uning muhabbati ekaniga ishora qilinmoqda.

Har ikkisi ham bir birining ich ichiga g'arq bolgandi, barcha narsalar hali hamon ulardan tashqarida edi, faqatgina ayolning ichidagi olovdan kuchayib chiqayotgan tutun kabi otashin nafaslardan tashqari. Biroz tinchlanib olishgandan so'ng yigit ayolni qo'llaridan ushlab divan tomonga olib bordi va qo'llarini uning jismiga muloyimlik bilan qo'ydi, go'yoki qiz uning qo'llari orasidan erib ketishidan havotirlanardi. Yigit ayolni uzoq vaqtdan beri sog'ingandi va sirlarini unga shivirlardi, qizning ruhini quchoqlab uning asli sarob ekanligini anglab yetardi. Barmoqlarini ehtiyotkorlik bilan yoydida uning iyagini ko'tardi. Ularning ko'zlari to'qnashdi. Bu esa otashin va telabanamo bir ishqning ko'rinishi edi.

Hikoyaning bu parchasiga e'tibor qaratar ekanmiz, ikki oshiqning visol onlari qanday tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Go'yoki bu olamda ulardan boshqa hech kim yo'qdek. Ayolning hislari go'yoki otashin bir gulxandan otilib chiqayotgan olovga timsol qilinmoqda. Yigitning sog'inchi esa hali hamon bosilmagandek bularning barchasi ro'yodek va mahbubasi ham u uchun bir sarobdek tuyulardi. Sababi bu haqiqat bo'lishi qiyin bo'lgan haqiqat edi u uchun. Ikki sevishganning ko'zlari to'qnashishi esa shunday tasvirlanganki bu qarashlarda chinakam otashin bir muhabbatni korish mumkin edi.

"Biz nima qilishimiz kerak?" deya yigit yig'lab yubordi.

Ha, chindan ham ular nima qilishlari kerak edi? Ular qanday qilib bu tarzda yashashlari mumkin edi? Qachongacha ayol bu muhabbatning otashiga bardosh bera oladi? Ayol ikki hayotda ham yashay olaman, umrimning oxirigacha bu kulgilik holatga bardoshim yetadi deb o'ylagandi. Bugun esa u o'z o'tmishi va kelajagi o'rtasida tanaffus qilmoqchi, yigitga o'zining oxirgi so'zini aytmqchi. Bugun u umrining 10 yiliga qalin parda tushuradi, 10 yil davomida sodiq rafiq, fidoyi ona namunasi bo'lgan.....to uni ko'rmaguncha!

Bu parchadan esa hikoyaning asl mazmuniga kelayotganimizni tushunishimiz mumkin. Ayolning ikki hayoti borligi bir qarashda kulgili ammo u uchun judayam qiyin holat edi. Bu holatning qachongacha davom etishi u yana qachongacha bularning baridan azoblanib yashashi haqida so'z boradi. Ammo shu bugun u bir qarorga kelishi kerak edi ya'ni ikki hayotidan birini tanlamog'i lozim edi. 10 yillik turmushi, farzandlari butun bir haqiqiy hayotimi yoki chin sevgisi va o'zi niyat qilgandek bir hayotmi. Uning bu vaziyati yana bir bor olov orqali ifodalangan, ya'ni "ayol ikki o't orasida yonmoqda" deya tasvirlangan. Qiyin vaziyat, hayotining mazmuni bo'lgan farzandlarimi yoki unga yangi bir hayot bergan muhabbatimi?

Ayol baxtsiz hayot kechirdimi?

Bu jumlaning adiba hikoya qahramonining o'tmishi va 10 yil davomida yashab kelgan hayotini tasvirlash uchun kirish so'z sifati qo'llagan. Buni o'qigach o'quvchida albatta ikki xil fikr paydo bo'ladi:

1-Ha, u baxtsiz yashadi shu sababdan, o'z baxtni haligacha qidirardi va uni topdim deya u uchun kurashishga harakat qila boshladi.

2-Yo`q, aslida u baxtsiz emasdi uning hayoti mazmuni bo`lgan farzandlari bor edi.

Shu fikrlar orqali hikoyani o`qishni davom etish va voqealar rivoji qay tarzda davom etishiga qiziqish yanada ortib boradi.

Ammo yana bir savol ham tug`ilishi aniq. U eri bilan baxtlimidi uni sevarmidi? Yoki eri uni sevmagani uchun u mana shu holatga keldimi? Yozuvchining bir gap orqali butun bir o`tmish voqealarini ochib bera olishga urindi. Hikoyani o`quvchi insonni yanada qiziqishga, unda turli savollar, fikrlar paydo bo`lishiga sabab yozuvchining maxoratidir. Hikoyaning shu qismlarida bu mahorat yaqqol namoyon bo`ladi.

Erining xulqi -odati o`zgarmas, doim bir xil edi;uxlardi, uyg`onardi, o`tirardi, ovqatlanardi va hech qachon o`zgarmasdi. Eri bilan o`tkazgan hayoti davomida undan biror axloqsiz so`z eshitmagandi; Erining unga nisbatan munosabati, mehribonlik do`stlik, oliyjanoblik va samimiylilik kabi o`ziga xos xususiyatlari bilan doimo ajralib turardi.

Bu gaplardan ayolning erini ta`rifini bilish mumkin.U yomon ermidi yoki yaxshimi?Yozuvchining so`zlariga ko`ra ayoliga nisbatan biror hafa qiladigan harakat yoki so`z ishlatmagan oliyjanob bir kishi edi.Uning kunlari doimiy bir xil tarzda kechardi. Hech narsa o`zgarmasdi. Asosan ish bilan mashg`ul bo`lgan inson edi. Oralaridagi farq biroz katta bo`lgani uchunmi ularning hayotdan istaydigan narsalari farq qilardi. Yozuvchining nega aynan qahramonimizning erini kun tartibi ila ma`lumot berishidan yuqoridagilarni tushunishimiz mumkin. Ammo ayol ham 10 yil davomida bularning bariga moslashib yashab keldi. Afsuski uning ichidagi bir olov so`nmagandi va unga bir uchqun kerak bo`ldiki, u yana yona boshladi va bu uchqun uning sevgilisi Rushdi bo`ldi.

Farzandlari uning ko`z quvonchi va hayoting asosiy mazmunlari edi.

Farzandlarini ko`z quvonchga o`xshatish bu farzandlari uning hayotidagi yagona quvonch ekanligi ifodalangan.

U katta oilada ulg`ayib, katta bir koshonaning bekasi bo`ldi.

Bu jumlada so`z albatta qahramonimiz haqida ketmoqda. Shu gap orqali uning katta oilada ulg`aygani yani unchalik boy bo`lmagan va o`ziga yarasha ayrim muhtojliklarga ega bo`lgan deya tushunishimiz mumkin. Bunga zid o`laroq katta xonadon Bekasi ekanligi aytilmoqda, ya`ni u qiyinchilikda ulg`aygan bo`lsada hozirda to`qchilikda yashayotgani ifodalangan.

Ammo, Ayol Rushdi biror martta uning e`tiborini o`ziga tortganini yoki u haqida o`zi uchrashgan boshqa odamlardan alohida o`ylaganini eslay olmadi.Hatto salomlashganda ham shunchaki uzoqdan boshini qimirlatib qo`yardi. Ayol qachondir unga qo`l silkitganini ham eslolmadi. Xo`sh,dunyoda qanday bir hodisa ro`y berdiki ,o`sha kuni ayol Rushdidan ko`z uzolmay qoldi? Rushdining qaysi bir yangi xususiyati uni o`ziga jalb etti? Va nega Rushdining ko`zlari tinmay uni qidirardi,o`zini olib qochishiga imkon qoldirmas edi, go`yo ayolni gipnoz qilishga urinayotgandek, u bilan birga tubsizlikka tushayotgandek, ayoling butun bir jismi u uchun naqadar og`irlik qilayotganini unga his qildirayotgandek, asablari qanchalik charchaganini va bularning barchasidan holi qolib dam olishi kerakligini tushuntirayotgandek edi.

Aslida ayol sevgilisini oldindan tanigan bo'lsa-da, avvallari unga hech e'tibor qaratmagandi. Rushdi ham e'tiborini qaratadigan biror hislatga ega emasdi. Ammo, aynan usha bir kunda barchasi boshqacha bo'ldi. Rushdiy ayoldan kozini uzmay uni ta'qib qilishda toxtamadi, uni ruhini qiynayotgan barcha narsani huddiki his qilgandek unga ozgacha nigohlar bilan qarardi. Shu hodisa ayolning e'tiborini tortdi va bundan ma'lumki barcha hodisalar shu bir kun sababli o'zgara boshladi.

Xa, u shunchaki bir ayolning tirik murdasi bo'lardi. Qalbi, asablari his-tuyg'ularini yo'qotgan har qanday ayol, tirik murdadan boshqa hech narsa emasdi!

Sevgilisiz hayotni endi u ma'nosiz bir hayotdek his qila boshladi. Ayolning yarmi farzandlari uning hayot mazmuni ekani va ularsiz yashay olmasligini anglab yetsa, qolgan yarmi sevgisiz tirik bir murdadek bo'lishini anglardi va usiz bu hayotda qolishdan qo'rqardi.

"Baxt menga o'xshaganlar uchun yaratilmagan... Meni kechiring... Bolalarim meni chaqirmoqda... Siz mendek yarim ayol bilan yashab baxtli bo'la olmaysiz.... Men sizni bilaman va yaxshi ko'raman..."

Hikoyani yakunlab beruvchi parcha. Ayolning sevgilisiga yozgan so'nggi maktubi. U o'z baxtini o'ylab bir qadam tashladi ammo bu qadami uning qolgan yarim baxtini olib qo'ygandi. U ketsa faqat o'zi emas balki farzandlarining ham baxtini o'ziniki singari yarim baxt qilardi. Onalik mehri oshig'iga bo'lgan muhabbatidan ustunlik qildi va o'zi uchun eng to'g'ri deb bilgan qarorni qabul qildi. Barcha orzularini bir eshik ortida qoldirib o'zi uchun bu eshikni qulflab hech ham ochilmaydigan qilib qo'ydi.

XULOSA

Safi Abdullahning yuqorida tahlil qilib o'tilgan hikoyasida ayrim ayollarning ichki dardi, hayot doim ham ular istagandek emas balki vaziyat taqazo etganidek bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bir narsa e'tiborimni tortdi hikoyada ayol qahramonga va uning eriga ism berilmagan. Ammo uning farzandlari va sevgilisiga ism berilgan. Mening fikrimcha, hikoyaning asl ma'nosini ifodalash uchun ham qo'llanilgan. Bir butunning ikki yarmi. Bunda butun nima ekanligimas balki uni ikki tomonga tortib azob berayotgan narsalar muhimligi va qay biri ustun kelishidir. Ayol uchun doim o'z baxt saodatidan ko'ra oilasi farzandlari baxti muhim bo'lgandek bu hikoyada ham onaning hayotida u uchun farzandlaridan ustun keladigan hech bir inson bo'lmasligi ifodalab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dalya Cohen-Mor. Arab Women Writers. State University of New York Press, 2005.
2. B. Omonov. Hikoyanavislik san'ati. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, 2002.
3. Sh. Karimova. Arab mamlakatlari ayollarining badiiy ijodi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
4. A. Qodirov. Hikoyaning badiiy tahlili. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008.

5. D. Fatxullin. Arab ayollari ijodidagi erkinlik va muhabbat. Istanbul: Turkiya Nashriyoti, 2013.